

---

## Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayevning aholi vakillari bilan navbatdagi fuqarolar qabuli tuman Xalq qabulxonasida bo'lib o'tdi.

Ochiq va samimiy muloqot tarzida kechgan fuqarolar qabulida asosan ishga joylashish, imtiyozli kredit ajratish, subsidiya asosida uy-joy bilan ta'minlash, davolanishi uchun moddiy yordam ajratish, bir martalik moddiy yordam tayinlash va yana bir nechta turdagi masalalar yuzasidan murojaatlar kelib tushdi.

Qabul davomida 25 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. 12 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi. 3 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

2023-09-26 17:31:35